

YASHIL

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal



ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA YUQORI MUHANDISLIK TEKNOLOGIYALARINI ILMIY-AMALIY JORIY ETISH INNOVATSION TARAQQIYOT POYDEVORI


2
0
2
4

MAQOLALAR TO'PLAMI

MAXSUS SON
Iyun-iyul



Digital
Object
Identifier



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Mas'ul muharrir:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'ZR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'ZR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'ZR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMBIB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Musyeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Utayev Uktam Choriyevich, O'ZR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'ZR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'ZR Tabiat resurslari vazirligi, O'ZR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

“ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA YUQORI MUHANDISLIK TEXNOLODIYALARINI ILMIY-AMALIY JORIY ETISH INNOVATSION TARAQQIYOT POYDEVORI”

MAVZUSIDAGI ILMIY MAQOLALAR TO‘PLAMI





O'ZBEKISTON MEHNAT BOZORIDA BANDLIKNING INNOVATSION TURLARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH OMILLARI



Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna

Buxoro muxandislik-texnologiya instituti
"Menejment" kafedrasini mudiri, dots.nt(PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada mehnat bozorida aholi bandligini ta'minlash buyicha bandlikning innovatsion turlari tahlil qilingan, dolzarb vazifalar va muammolar o'rganilgan. Shuningdek, mehnat bozorida ishsizlikni kamaytirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: mehnat bozori, bandlik, innovatsion ish bilan bandlik, ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmi, autsorsing, autstaffing, frilanser, mehnat bozorini tartibga solish.

Abstract: In this article, innovative types of employment are analyzed, current tasks and problems are studied to ensure the employment of the population in the labor market. Also, proposals and recommendations on reducing unemployment in the labor market are given.

Key words: labor market, employment, innovative employment, socio-economic mechanism, outsourcing, outstaffing, freelancer, labor market regulation.

Аннотация: В данной статье анализируются инновационные виды занятости, изучаются текущие задачи и проблемы обеспечения занятости населения на рынке труда. Также даны предложения и рекомендации по снижению безработицы на рынке труда.

Ключевые слова: рынок труда, занятость, инновационная занятость, социально-экономический механизм, аутсорсинг, аутстаффинг, фрилансер, регулирование рынка труда.

KIRISH

Mehnat bozorida iqtisodiy funktsiya sifatida ish bilan bandlikni tartibga solinish darajasi, asosan davlatning ijtimoiy-iqtisodiy vazifalari mohiyatiga bog'liqdir. Davlat o'z zimmasiga oladigan ijtimoiy-iqtisodiy vazifalari mehnat bozorida ish bilan bandlikni tartibga solish yo'nalishi va tamoyillarini belgilab beradi. Shuningdek, mehnat bozorini tartibga solish jamiyat qanday ijtimoiy-iqtisodiy modelni tanlashidan qat'iy nazar zarur hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Aholining ish bilan bandligini ta'minlash va ishsizlikni bartaraf etish bo'yicha iqtisodchi olimlar va mutaxassislar tomonidan o'zlarining tadqiqotlarida keltirib o'tishgan. Ular tomonidan aholi ish bilan bandligi va ishsizlikning kelib chiqish sabablari, mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni va ularning salbiy va ijobiy jihatlari o'z davrlaridagi mavjud holatlar bo'yicha ko'rsatib o'tilgan.

N.V.Kayzerning ta'kidlashicha, mehnat bozorini davlat tomonidan tartibga solish – "mehnat bozori tizimida tenglikka erishish uchun ishchi kuchiga talab va taklif omillari mutanosibligiga davlatning kompleks, maqsadga yo'naltirilgan, muntazamlik asosida davlatning ta'sir etuvchi chora-tadbirlari majmui bo'lib, yakuniy maqsadda to'liq, mahsuldor, samarali ish bilan bandlikka erishish hisoblanadi".



Mehnat bozorini tartibga solish neoklassik nazariya namoyondalaridan bo'lgan A.Marshall tomonidan ham o'z asarlarida tadqiq etilgan. A.Marshall mehnat bozorini tadqiq qilgan holda, uning o'z-o'zini tartibga solish tizimini mukammal emasligini tavsiflagan edi: "Mahsulot bozorida bitimlar tuzilganda ustunlik tomonlar o'rtasida butunlay teng taqsimlanishi mumkin, ammo ishchi kuchi bozorida esa ustunlik ko'pincha sotuvchilar emas, balkim sotib oluvchilar tomonida bo'ladi".

Neoklassik nazariyaga ko'ra, mehnat bozorini tartibga solishga aralashish muayayn mamlakat hukumati tomonidan amalga oshiriladigan ishsizlikni kamaytirish usullari vositasida sodir bo'ladi. Ishsizlikning asosiy sabablaridan biri sifatida yuqori ish haqi bo'lib hisoblanadi. Shunga ko'ra, A.Pigu va uning zamondoshlari ish haqini kamaytirish, kasaba uyushmalariga ish haqini oshirish haqidagi ularning talabi ishsizlik darajasini o'sishiga olib kelishini tushuntirish kerakligi, yuqori bo'lmagan ish haqiga talabgor ishchilarni davlat tomonidan ish bilan ta'minlash, xususan, ijtimoiy sohani rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashni taklif qilardilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Mehnat bozorida bandlikning innovatsion turlarini shakllantirish va rivojlantirish tendensiyalarini o'rganishda umumiylikdan individualikka va aksincha tartibda deduksion yoki induksion usullardan foydalanish samara bersa, abstrakt-mantiqiy fikrlash usuli esa jarayonni tizimli tahlil qilishda ahamiyatlidir. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullarini keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mehnat bozorida ish bilan bandlik siyosatini amalga oshirish chora-tadbirlarini o'zaro bog'liq holda turli xususiyatlariga ko'ra guruhlash mumkin. Bunda ish bilan bandlikni tartibga solish mehnatga layoqatli aholini samarali ish bilan bandligini ta'minlash maqsadida ish bilan bandlik munosabatlari tizimiga boshqaruv subyektlarining maqsadga yo'naltirilgan va tashkiliy-iqtisodiy jihatdan ta'siri sifatida talqin etish mumkin.

Bizning fikrimizcha, innovatsion ish bilan bandlikni tartibga solish quyidagi ikki o'zaro bog'liq masalalar yechimiga yo'naltirilgan: bir tomondan, mehnat bozori va ish bilan bandlikning moslashuvchanligini ta'minlash kerak, busiz innovatsion iqtisodiyot rivojlanmaydi, ikkinchidan, ish bilan bandlik so'byektlarini sodir bo'layotgan o'zgarishlar natijasidagi xavf-xatardan muvofiq ravishda himoyalash zarur. Ish bilan bandlikni tartibga solishning muhim jihatlari quyidagilardan iborat:

- innovatsiyalarning paydo bo'lishiga ish bilan bandlik tizimini moslashuvchanligini va qodirligini ta'minlash;
- ish bilan bandlik samaradorligini oshirish;
- yangi turdagi ish bilan bandlik subyektlarining faol shakllanishi;
- ishchilarning xulq-atvoriga innovatsion motivni shakllantirish;
- boshqaruvning davriy tavsifi.

Xorijiy tajribalarga ko'ra, innovatsion ish bilan bandlik rivojlanishida davlat boshqaruvining roli muhim ahamiyatga ega. Xususan, davlat institutsional o'zgarishlar, innovatsion va soliq siyosati bilan bog'liq choralar, ishchi kuchini tayyorlash va qayta tayyorlash, ta'lim tizimini isloh qilish, inson resurslari rivojlanishi sohasida korxona va firmalarning ichki faoliyatiga ta'sir ko'rsatish kabilar hisobiga sifat jihatdan yangi ishchi kuchiga talabni o'sishini rag'batlantiradi va qo'llab-quvvatlaydi. Masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida bu quyidagilarda namoyon bo'ladi: faol dasturlarni keng joriy etish, mehnat munosabatlarning moslashuvchan modellardan amalda keng foydalanish, surunkali ishsizlik qarshi yangicha choralarni ishlab chiqish va amalga oshirish, daromadlarni soliqqa tortish va nafaqalar tizimining modernizatsiyalashganligi, mehnatga layoqatli yoshdan katta yoshdagi kishilar ish bilan bandligi miqyosining kengligi va boshqalar.

AQSHda davlat ish bilan bandlik sohasiga quyidagi dasturlar vositasida faol ta'sir ko'rsatadi: ta'lim dasturlari, ishchi kuchini kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash; ish bilan bandlik darajasini rag'batlantirish, ish joylarini miqdor va sifat jihatidan oshirish; qo'shimcha ish joylarini yaratishga soliq imtiyozlarini berish orqali kompaniyalarni rag'batlantirish; ishsizlikdan ijtimoiy sug'urtalash va boshqalar.

Bizning fikrimizcha, innovatsion ish bilan bandlikni tartibga solish bir qator tamoyillarga asoslanishi kerakki, bunda tartibga solish mexanizmlari ish bilan bandlikni boshqarish samaradorligini oshishi va yangi turdagi ish bilan bandlik shakllari vujudga kelishini rag'batlantirishi zarur (1-jadval).

1-jadval. Hududiy mehnat bozorida innovatsion ish bilan bandlikni tartibga solish tamoyillari¹


Tamoyillar	Mazmuni
Kognitivlik	Bu tamoyil shuni nazarda tutadiki, ish bilan bandlik tizimiga munosabatlar bo'yicha tartibga solish tizimining ta'siri nafaqat muayyan yo'nalishni aniqlovchi, balki bilim orttirish, tadqiq etishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Innovatsion ish bilan bandlik doimo rivojlanadi, takomillashadi, transformatsiyalashadiki, buning natijasi ularoq tartibga solish jarayonida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni nazarda tutgan olgan holda istiqbollashtirish, nazorat va monitoring qilishda hisobga olish va muvofiq ravishda idrok etish zarur.
Moslashuvchanlik	Mazkur tamoyil ish bilan bandlik "moslashuvchan" usullarini joriy qilish zarurati, makroiqtisodiy holatlarning dinamik o'zgarishiga moslashuvchan munosabat bildirish, korxona darajasida moslashuvchan ish bilan bandlikni oshirish, "moslashuvchan" ishchini shakllantirish, innovatsion xulq-atvor motivatsiyasi, o'z-o'zini ish bilan bandligini rivojlantirish, innovatsion biznes kabilarni ifodalaydi.
O'zaro muvofiqlik va integratsiya	Bu tamoyil ish bilan bandlikni tartibga solishning turli darajalarida ham vertikal (korxona darajasida kadrlar siyosati, hududda ish bilan bandlik siyosati, makrodarajada ish bilan bandlik siyosati, mahsuldor, samarali va eng maqbul ish bilan bandlikka erishish sohasida xalqaro tavsiyalar), ham gorizantal kesimda amalga oshishidir.
Inklyuzivlik	Mazkur tamoyil inson taraqqiyoti konsepsiyasi kontekstida ayniqsa muhimligi nazarda tutiladi. U aholining turli xil ijtimoiy-demografik guruhlarini (yoshlar, ayollar, nogironlar, katta yoshdagi kishilar, migrantlar va boshqalar) ish bilan bandlik sohasiga jalb qilish hisobiga daromadlar olish va ijtimoiy ehtiyojlarini realizatsiya qilish maqsadida mahsuldor ish bilan bandlik imkoniyatini beradi.
Komplekslilik	Ish bilan bandlik muammolarini hal qilishda nafaqat tartibga solishning alohida iqtisodiy jihatlarini, balki ijtimoiy, psixologik, huquqiy, tashkiliy-texnik, axborot kabi jihatlarini hisobga olish zarurligini nazarda tutadi.
Selektivlik	Ish bilan bandlik va iqtisodiy faol aholini turli hududlar, iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan bandlik rivojlanishining turli bosqichlariga muvofiq holda turlicha tartibga solish usullari va vositalarini qo'llashni nazarda tutadi.
Doimiy analitik ta'minot va axborotning yetarliligi	Mazkur tamoyilga ko'ra, ish bilan bandlikni tartibga solishning analitik ta'minoti jarayoni samarali bo'lishi mumkin, faqatgina uning axborot ta'minoti yetarlicha bo'lsa. Bunga aloqador ravishda innovatsion ish bilan bandlikni tartibga solishning axbort bazasini takomillashtirish va muvofiq ravishda boshqarish bo'yicha ta'sir choralari ishlab chiqish kerak.

Ish bilan bandlikni o'z-o'zini tartibga solishi o'zida murakkab kombinatsiyalarni, ya'ni universal (qonunchilik), yo'naltirilgan (ichki direktiv va qarorlar) va aralash (axborot, targ'ibot va b.) kanallarni mujassamlashtiradi. Tartibga solish tizimi elementlarining o'zaro aloqadorligi barqaror axborot almashinuv tavsifi sifatida mexanizmdan iborat bo'ladi. U o'zida obyektiv ravishda sodir bo'luvchi u yoki bu jarayon kuchayib borish vositasini namoyon etadi.

Quyidagi 1-rasmda innovatsion ish bilan bandlik rivojlanishini tartibga solish mexanizmini yaratishning konseptual modelini innovatsion ish bilan bandlik shakllarini tartibga solishning konseptual modeli keltirilgan. Uning yaratilishiga asosiy talablar:

- innovatsion ish bilan bandlikni tartibga solish mexanizmi ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarga o'zaro muvofiqlikda bo'lishi kerak, ya'ni maqsadlar tizimining barcha darajalaridagi har bir maqsad ushbu maqsadga erishishni ta'minlovchi ish bilan bandlikni muayyan kompleks tartibga solish chora-tadbirlariga muvofiq kelishi zarur;
- yangi turdagi ish bilan bandlikni tartibga solish mexanizmi ratsional yaxlitlik, alohidalik va muvofiqlik elementlariga ega bo'lishi zarur. Bu shuni ifodalaydiki, tizimli tamoyillar nuqtayi nazaridan ko'pchilik elementlar o'zaro bog'liqdir va biror bir elementning o'zgarishi boshqa elementlarning o'zgarishini zarurat etadi. Masalan, ish haqi, ishlab chiqarishga yangilik kiritish va mehnatning sifati bilan o'zaro bog'liqdir. Aks hoda mexanizm kam samarali hisoblanadi. Shuningdek, elementlarning muayyan darajada elementlarning alohidaligi zarur, chunki ularning biron birida mohiyati bo'yicha o'zgarishning yuzaga kelishi boshqa elementlar bilan kompensatsiyalanishi kerak;
- aholini innovatsion ish bilan bandligini tartibga solish mexanizmi o'zining hayotiylik davri mobaynida turli davomiylikdagi elementlarni o'z ichiga olishi kerak: uzoq muddatli, o'rta muddatli va qisqa muddatli (mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning o'zgarishi bilan).

¹ Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.



1-rasm. Innovatsion ish bilan bandlik rivojlanishini tartibga solish mexanizmini yaratishning konseptual modeli².

2 Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.



Mexanizmning bunday tarkibi uning barqarorligi, dinamik rivojlanishi va real voqiyelik o'zgarishiga muvofiqlikni ta'minlaydi. Yangi turdagi ish bilan bandlikni tartibga solishning zamonaviy vositalaridan biri – bu uning maxsus indikatorlar monitoringi bo'lib hisoblanadi. Ular statistik ma'lumotlar asosida ham, ish bilan bandlar, ishsizlar, ish beruvchilar, ekspertlar, hokimiyat organlari ishchilarining subyektiv baholashlari asosida ham tuzilishi mumkin.

Eng muhim va muhokamali muammolardan bo'lib, innovatsion ish bilan bandlikni tartibga solish natijalarini aniqlash va baholash hisoblanadi. Hozirgi ilmiy adabiyotlarda keltirilgan nuqtayi nazarlarga ko'ra mehnat bozori, ish bilan bandlik, ijtimoiy-mehnat munosabatlari tizimi sifatida murakkab obyektlarda tartibga solish natijalariga nisbatan yetarlicha qarama-qarshilik mavjud.

Ommalashgan nuqtayi nazarlarga muvofiq boshqaruv faoliyati natijadorligi va samaradorligi boshqaruv tizimining yakuniy ko'rsatkichlari bo'yicha baholashni nazarda tutadi. Bunga a'loqador holda ish bilan bandlikni tartibga solishning yakuniy natijalarini ikki nuqtayi nazardan qarash mumkin: natijadorlik nuqtayi nazaridan (rejalashtirilgan maqsadlar va natijalarga erishishining mos kelishi) va samaradorlik nuqtayi nazaridan (resurslarga sarflarning olingan natijalarga nisbati).

Bizning fikrimizcha, innovatsion ish bilan bandlikni samarali boshqarish (tartibga solish) natijalar va sarflarning keng doirada solishtirilishini nazarda tutadi. Tartibga solish natijasi sifatida ish bilan bandlikning yuqori darajasi ortiqcha ishchilar sonini saqlashni va samarasiz ish bilan bandlikdan foydalanish emas, balki yangi ish joylarini yaratish, ish bilan bandlik yangi shakllarini rivojlantirish, mehnat bozorida turli ijtimoiy-demografik guruhlar moslashuvchanligi va raqobatbardoshligini oshirishni ta'minlashi zarur.

Bu masalalarni hal etish turli darajalarda ish bilan bandlikni tartibga solish institutlari zimmasiga yuklatilgan: mamlakat miqyosida, hududiy, mahalliy, tashkilot darajalarida. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda mehnat bozorini boshqarishda bir qator yo'nalishlar mavjud bo'lib, ular aholi ish bilan bandligi davlat xizmatiga taalluqlidir. Bu xizmatning asosiy vazifasi mehnat bozori haqidagi axborotni mehnatga layoqatli aholiga tarqatish hisobiga mehnat bozorining faoliyat ko'rsatishi samaradorligini oshirishdan iboratdir.

Aholining ish bilan bandligiga ko'maklashish bilan bog'liq xizmatlar davlat ish bilan bandlik xizmati organlari tomonidan bepul ko'rsatiladi. Bozor munosabatlarining rivojlanishi ish bilan bandlikning nodavlat xususiy xarakterdagi tuzilmalari ham tashkil etilishiga imkon bermoqda. Bular xodimlarni tanlash bo'yicha tijorat agentliklari; o'quv yurtlari huzuridagi muassasalar va hokazo muassasalardir. Mehnat bozori infratuzilmasining asosiy tarkibiy qismi sifatida bandlikka ko'maklashish markazlarining faoliyati ham muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda mehnat bozorining shakllanishi mehnat resurslarining ortishi sharoitida sodir bo'lmoqda. Har yili ish qidirayotgan fuqarolar soni 30-40 ming kishiga, bandlikka ko'maklashish markazlari orqali ish bilan ta'minlanganlar soni 20-30 ming kishiga ko'paymoqda. Respublikamizda innovatsion ish bilan bandlikni tartibga solish innovatsion siyosat bilan uzviy bog'liqdir. Innovatsion siyosatning maqsad va vazifalari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning turli yo'nalishlaridagi davlat dasturlarida o'z aksini topmoqda.

Respublikamizda mehnat bozori moslashuvchan tavsifga ega. Shuning uchun mazkur sohada amalga oshirilayotgan davlat dasturlari ish bilan bandlikni moslashuvchanligini ta'minlashga qaratilgan. Shuning uchun respublikamizda moslashuvchan mehnat bozorini rivojlantirish va samarali ish joylarini yaratish uchun shart-sharoitlar yaratmasdan turib, barqaror yuqori sur'atda iqtisodiy o'sishni ta'minlab bo'lmaydi. Bizning fikrimizcha, ushbu muammolarni hal qilish uchun hukumat quyidagi vazifalarni amalga oshirishi zarur:

- mehnat qonunchiligini takomillashtirish (ishchi kuchidan foydalanish moslashuvchanligini oshirish, mehnat sharoitlarini ta'minlash yuzasidan davlat ekspertizasini takomillashtirish va boshqalar);
- ishchi kuchining hududiy kasbiy harakatchanligini rivojlantirish (mamlakat miqyosida ishchi kuchlarini joylashtirish uchun ma'muriy to'siqlarni olib tashlash; uy joyga ega bo'lish va yollash uchun shart-sharoitlarning ta'minlanganligi va b.);
- ish bilan bandlik sifatini oshirish (mehnatga haq to'lash bo'yicha tarmoq tizimiga o'tish, mehnat sharoitlarini yaxshilash);
- aholini ish bilan bandligini ta'minlashga ko'maklashish sohasida davlat xizmatlari sifatini oshirish.

Ish bilan bandlik munosabatlarining "ko'p qatlamli"ligini hisobga olgan holda qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun ko'p darajali tizimning ustvor yo'nalishlari, maqsadlari va muvofiq resurslarni aniqlash zarur. 3.3-jadvalda muallif tomonidan yangi turdagi ish bilan bandlikni tartibga solish strategiyasi taklif etilgan.

Yangi turdagi ish bilan bandlikni samarali tartibga solish makro, mezo va mikrodarajalarda innovatsion iqtisodiyotda mehnatga talabni istiqbollashtirishni nazarda tutadi. Bugungi kunda yangi turdagi ish bilan bandlikni rivojlantirish uchun muvofiq texnika va texnologiyalarni ishlab chiqishni rag'batlantirish kerak. Ish bilan bandlikni tartibga solishning muhim elementi bo'lib, maqsadli dasturiy yondashuv hisoblanadi.

Ko'pgina tadbirlar ba'zida "Ta'lim", "Sog'liqni saqlash", "Aholini ijtimoiy himoyalash" kabi ustvor milliy loyihalarda sohalar tarmoqlar rivojlanishining maqsadli dasturlarida ifodalangan.

2-jadval. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimning turli darajalarida innovatsion ish bilan bandlikni tartibga solish strategiyasi³.

Darajalar	Strategiya	Strategiya tavsifi
Makrodaraja	Aholini ish bilan bandligini davlat tomonidan tartibga solish strategiyasi	Qonunchilik hujjatlarini, dasturlarni, istiqbol ko'rsatkichlarni muvofiq ravishda ishlab chiqish, innovatsion markazlarni shakllantirish, intellektual mulkni himoyalash, ta'lim tizimini rivojlantirish va b.
Mezodaraja (hududiy)	Yangi ish bilan bandlikni tartibga solishning hududiy strategiyasi	Ish bilan bandlik yangi turi rivojlanishining hududiy dasturlari tarkibiga ta'lim tizimini rivojlantirish, kichik biznes rivojlanishining dasturlari, yangi turdagi o'z-o'zini ish bilan bandligini ta'minlash, innovatsion faoliyati, talantli yosh kadrlarni qo'llab-quvvatlash, yosh mutaxassislarni ishga joylashishiga ko'maklashish, mehnat migratsiyasini tartibga solish, hududiy mehnat bozorida xavf-xatarni boshqarish kabilar kiradi.
Mikrodaraja (korporativ)	Tashkilotda personalni boshqarish strategiyasi	Kadrlarni rejalashtirish, yollashning moslashuvchanligi, innovatsion komandalarni shakllantirish, uzluksiz ta'lim, ishchilarning ijodiy faolligini rag'batlantirish, innovatsion mehnatning korxona miqyosida kooperatsiyasi, innovatsion qobiliyatni hisobga olgan holda ishchilar karyerasini rejalashtirish, joriy innovatsiyalar uchun imkoniyatlarni kengaytirish va b.
Xodim	O'z-o'zini boshqarish	O'zluksiz ta'lim, malakani oshirish, ta'lim olish, mehnat natijalari va sifatiga mas'uliyat, moslashuvchan mehnat karyerasi, ijodiy qobiliyatni namoyon qilish, intellektual salohiyatni rivojlanishi va b.

Mehnat bozorida innovatsion ish bilan bandlik shakllanishining muhim omili bo'lib, hududda yangi turdagi ish bilan bandlik rivojlanishining ijtimoiy-mehnat sohasi holati va mavjud potensialini hisobga olgan holda hududiy ish bilan bandlik siyosatini amalga oshirish hisoblanadi.

Ish bilan bandlikning hududiy rivojlanish tendensiyalari muayyan xususiyatlar bilan tavsiflanad:

- ishsiz statusiga ega fuqarolar soni ko'rsatkichi bo'yicha. Mazkur ko'rsatkich respublikamizda 2019-yilda 4,5 %ni, shuningdek Buxoro viloyatida 4,6 %ni tashkil etdi;
- davlat ish bilan bandlik xizmatida ruyxatda bo'lgan kadrlarga korxona va tashkilotlar tomonidan talab. Iqtisodiyotda mehnat taqsimotining chuqurlashib borishi, zamonaviy yangi tarmoqlarning vujudga kelishi uchun asos yaratmoqda. Buning natijasida mehnat bozorida zamonaviy kasblardagi malakali kadrlarga bo'lgan talab ortib bormoqda.

So'nggi yillarda bandlikka ko'maklashish markazlarida malakali ishchi kuchi oshganligi va oliy va o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassislarni ish bilan ta'minlanganlik darajasini o'sishi kuzatilmoqda. Lekin, Buxoro viloyati mehnat bozorida oliy ma'lumotli va malakali kadrlarning taklifi 8-9 %ni ayrim hollarda 7-8 %ni tashkil qilmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, mehnat bozorining samarali shakllanishi uchun malakali kadrlar jami ishchi kuchining 20-30 %ini tashkil qilishi zarur;

- o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari bo'yicha tahlillar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, ish bilan bandlik xizmati va bo'sh ish joylari o'rtasida bo'sh ish joylarini to'ldirish yuzasidan tafovutning mavjudligi xarakterlidir. Bu holat ish bilan bandlik xizmatida mavjud bo'sh ish joylarining nufuz darajasining ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan nomutanosibligi asosida paydo bo'lgan;
- iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari bo'yicha ish bilan tarkibi va dinamikasidagi o'zgarishlar quyidagilar bilan izohlanadi: 1) respublikamiz iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi sohasi va ayrim ixtisoiy tarmoqlarida ish joylarining qisqarishi va xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi; 2) ish bilan bandlik noan'anaviy shakllarining paydo bo'lishi, xizmat ko'rsatishning ayrim turlari sanoat tarmog'i tarkibida rivojlanmoqda.

Innovatsion ish bilan bandlikning rivojlanish strategiyasi makro, mezo va mikrodarajalarda ishlab chiqiladi va alohida shaxs, tashkilot darajasida realizatsiya qilinadi. Ish bilan bandlik rivojlanishining hududiy strategiyasini ishlab chiqishda mehnat bozorida innovatsion xulq-atvorga motivatsiyani shakllanishi, hududiy darajada mehnat resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlovchi institutsional shart-sharoitlarni shakllantirishni umum-davlat darajasida hisobga olish zarur.

Strategiyaning har bir darajasida innovatsion ish bilan bandlikning rivojlanishi hududiy ish bilan bandlik siyosati bilan bog'liqdir. U hudud miqyosida (hudud klasteri) shakllanadi hamda muvofaqqiyatli realizatsiya qilinishi ish bilan bandlikka ko'maklashish organlarining qo'llab-quvvatlanishi asosida amalga oshiriladi. Ish bilan bandlikning hududiy strategiyasi hudud ijtimoiy-iqtisodiy tizimi rivojlanishi strategiyasiga muvofiq bo'lishi kerak. Ular talab etilgan kasblar, ish bilan bandlik shakllari va ko'rinishlari, tarkibiy ishsizlik darajasini aniqlaydi, lekin aholining innovatsiyaga tayyorligi, inson kapitali jamg'arilishi orqali aniqlanadi. Innovatsion ish bilan bandlikni

3 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



tartibga solish strategiya taktikasi va elementlarining o'zaro aloqadorligiga bog'liq. Strategiya mehnat bozori va ish bilan bandlikka ta'sir ko'rsatuvchi tashqi va ichki omillar birikmasiga bog'liq holda muammoni yechishning turli xil variantlarini nazarda tutadi. Strategiyada qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirish yo'llari haqida boshqaruv subyektlarining qabul qilgan qarorlari asosida aniq standartlar, indikatorlar, ko'rsatkichlar keltirilgan bo'lishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hududiy darajada innovatsion ish bilan bandlikning rivojlanish strategiyasi aholining turmush tarzi va ish bilan bandlik sifatini oshirish, iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish bosqichlariga mos ish bilan bandlik tizimini shakllantirish hisoblanadi. Yangi turdagi ish bilan bandlik shakllarini rivojlanishi quyidagi tamoyillarga asoslanishi kerak: ijtimoiy hamkorlik mexanizmining takomillashganligi; turli aholi guruhlarining samarali ish bilan bandligini ta'minlash erkinligi va tengligi; innovatsion inson salohiyati bilan konsentratsiyalangan iqtisodiyot sektorlarini qo'llab-quvvatlash. Zamonaviy mehnat bozorlari ish beruvchilar va yollangan xodimlarning o'zaro ko'mak berishidan tashqari, u yoki bu jamoat tashkilotlarining (kasaba uyushmalari, tadbirkorlik birlashmalari, ijarachilar ittifoqlari va b.) jamoaviy manfaatlarini himoyalashning institutsional tuzilmalaridan tashqari, ijtimoiy hamkorlik bo'yicha davlatning vositachiligini ham nazarda tutadi.

Strategiyani realizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlari:

- mehnat qonunchiligi bajarilishi uchun nazorat va yangi turdagi ish bilan bandlikni huquqiy ta'minlashni takomillashtirish;
- zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish asosida mehnat sohasini axborotlashtirish darajasini oshirish;
- makroiqtisodiy va ijtimoiy siyosiy tadbirlar ko'magi bilan innovatsion ish bilan bandlik rivojlanishi uchun munosib ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni shakllantirish;
- innovatsion yo'naltirilgan kadrlarni tayyorlash;
- innovatsion loyihalarni davlat tomonidan va xususiy kapital hisobiga rag'batlantirish;
- aholini ish bilan bandligini davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini oshirish;
- yangi turdagi ish bilan bandlikni rivojlantirish sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Mehnat bozorini tartibga solish strategiyasini ishlab chiqish vaqtida, birinchidan, barcha jarayonlarning jamiyat va iqtisodiyotning olg'a tomon rivojlanish talablari, ijobiy o'zgarishlarni rag'batlantirishga bo'ysunishi, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlaydigan chora-tadbirlarning ustuvorligini ta'minlashga xizmat qilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarda yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. – <https://lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-apreldagi "Ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali iqtisodiyotning barqaror o'sishi uchun shart-sharoitlar yaratish bo'yicha navbatdagi islohotlar to'g'risida"gi PF-101-son Farmoni. – <https://lex.uz>
3. Klasen and Povel, 2013 S.Klasen, F.Povel Defining and measuring vulnerability: State of the art and new proposals S. Klasen, H. Povel (Eds.), Vulnerability to poverty, Palgrave, London (2013), pp. 17-49
4. Лопес-Кальва и Ортис-Хуарес, Л. Ф. Лопес-Кальва, Э.Ортис-Хуарес Уязвимый подход к определению среднего класса Журнал экономического неравенства, 12 (1) (2014), стр.23-47.
5. Cafiero and Vakis, 2006 C. Cafiero, R. Vakis Risk and vulnerability considerations in poverty analysis: Recent advances and future directions, social protection discussion paper 0610 Washington D.C, The World Bank (2006)



MUNDARIJA

Muhandislar – taraqqiyot tayanchi	4
Sadoqat Siddiqova	
Исследование влияние азотсодержащей добавки на процесс окисления битумов	9
Юлдашев Норбек Худайназарович	
Ziyorat turizmining iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ta'siriga oid muammolar yechimida terminologiyaning ahamiyati.....	14
Malohat Jo'rayeva, Shavkat Bafoyev	
Ekspluatatsiya davrida kompressor moylarining ishlashi va fizik-kimyoviy xususiyatlari o'zgarishining o'ziga xosligi	19
Xo'jaqulov Aziz Fayzullayevich	
Tabiiy gazning oltingugurtli qo'shimchalarining fizik-kimyoviy xossalari tadqiq qilish	24
Muxtor Jamolovich Maxmudov, Ramazonov Bahrom G'afurovich	
Автоматическое формообразование пневматических опалубок бикубическими сплайнами.....	30
Ядгаров Ўктам Турсунович, Ахмедов Юнус, Асадов Шухрат Кудратович	
Optimizing the efficient transport of mass from alternative energy sources and the process of heat and mass exchange during the processing of spices	37
Khayrullo Djurayev Fayzievich, Mizomov Mukhammad Saydulla ugli	
The role of digitalization in regional development and the utilization of their potential for sustainable development	44
Jafarova Khilola Khalimovna	
Разработка новых структур и способов выработки комбинированного трикотажа с повышенной формоустойчивостью на базе интерлочного переплетения	48
Гуляева Г.Х., Мукимов М.М., Каримова Н.Х.	
Кислотная активация навбахорской бентонитовой глины	53
Хужакулов Азиз Файзуллаевич, Хотамов Кобил Ширинбой угли	
Mustaqil ta'limni tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish.....	58
Murodova Zarina Rashidovna	
Kislorodli birikmalar asosida olingan antidetonatsion kompozitsiyalarning ai-80 avtomobil benzinini detonatsion barqarorligiga ta'sirini tadqiq qilish	66
Saloydinov Aziz Avazovich	
Buxoro viloyatining investitsion jozibadorligini oshirish yo'llari.....	70
Akramova Obida Qosimovna	
Исследование механико-технологических параметров глубокого рыхления почвы подпахотного горизонта.....	77
Н.С.Бибуттов, Ф.Ю.Хабибов, Ш.М.Муродов	
Разработка экспериментальной установки энергосберегающего измельчителя фруктов и овощей для производства сок с мякотью.....	85
Ф.Ю. Хабибов, Х.Х. Ниязов	
Туризм: типология и классификация.....	95
Малохат Мухаммадовна Жураева, Марупова Гульноз Умарджоновна	
"Yashil energetika"ni rivojlantirishni rag'batlantirishning me'yoriy ko'rsatkichlarini ishlab chiqish.....	99
Sadullayev Nasullo Ne'matovich, G'afurov Mirzoxid Orifovich, Ne'matova Zuxra Nasullo qizi	
Umumiy ovqatlanish korxonalarida xizmat ko'rsatish sifatini oshirishda diversifikatsiyalangan milliy hunarmandchilik mahsulotlaridan foydalanishning ahamiyati.....	108
Ruziyeva Gulinoz Fatilloevna, Raximova Dilorom Sulaymonovna	
Polimerlar ishlab chiqarishda hamda ularni qayta ishlashda hosil bo'ladigan chiqindilardan samarali foydalanish jihatlari	114
Raxmatov Sherzod Shuxratovich, Sadirova Saodat Nasreddinova, Niyozova Rano Najmiddinova, Axmedov Hafiz Ibroimovich	
Kichik quvvatli, energiya samarador shamol turbinalari ko'rsatkichlarining tahlili.....	118
I.I. Xafizov, F.F. Muzaffarov, M.Sh. O'ktamov	



Анализ ингредиентов пищевых продуктов с помощью нейронной сети	127
Мухамадиева Зарина Баходировна	
Dizel moylarini reologik xossalarini tatqiq qilish	132
Xo'jaqulov Aziz Fayzullayevich, Toshov Mavzuddin Sa'dullo o'g'li	
Анализ состав и свойства нефтяных остатков и битумов	136
Юлдашев Норбек Худайназарович, Махмудов Мухтор Жамолович, Комолов Руслан Илхомбекович	
Kambag'allikdagi tarkibiy o'zgarishlarning aholi turmush forovonligi darajasiga ta'sirining ahamiyati.....	141
Xayitov Sherbek Naimovich	
Maxsus kiyimlar tikishda foydalaniladigan gazlamalar tahlili	148
Sayidova MaftunaHamroqul qizi	
Production of tomato paste	153
Ergasheva Muhabbat Komil kizi	
Problems of development of research and innovative activities in higher educational institutions.....	156
Rakhimova Dilnoza Davronovna, Alimova Ruxsora Xamzayevna	
O'zbekiston mehnat bozorida bandlikning innovatsion turlarini shakllantirish va rivojlantirish omillari	159
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna	

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. Maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.